



# O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

*VOL. 3 ISS: 2 (2026)*

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



№	MUNDARIJA	Page
1.	<b>QISHLOQ XO'JALIGI SUG'URTASIDA AKTUAR HISOBLARNI QULLASH VA RIVOSHLANTIRISH MASALALARI</b> <i>Nurullaev Abdulaziz Sirojiddinovich</i>	5
2.	<b>SUG'URTA KOMPANIYALARI MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA XORIJ TAJRIBASI</b> <i>Nosirov Jasur Tursunpulotovich</i>	9
3.	<b>ESG TAMOYILLARI ASOSIDA SUG'URTA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH</b> <i>Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich, Yusupov Akbar Haydarovich</i>	14
4.	<b>SUG'URTA SOHASIDA INNOVATSION MARKETING VA RAQAMLI REKLAMA STRATEGIYALARINI JORIY ETISH YO'NALISHLARI</b> <i>Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich, Raxmonberganov Surojbek Uktamboy o'g'li</i>	18
5.	<b>MIJOZLAR QAMROVINI OSHIRISH UCHUN SUG'URTA KOMPANIYALARIDA TIZIMLI MARKETING STRATEGIYALARINI AMALGA OSHIRISH</b> <i>Raxmonberganov Surojbek Uktamboy o'g'li</i>	21
6.	<b>O'ZBEKISTON SUG'URTA TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINING HOLATI: MAVJUD MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI</b> <i>Xasanov Farrux Ravshanovich</i>	25
7.	<b>PENSIYA SUG'URTASINI AMALIYOTGA JORIY ETISHNING ZARURIYATI VA DOLZARBLIGI</b> <i>Yo'ldoshoval Aziza Muzaffar qizi</i>	28
8.	<b>BANK XIZMATLARINI SUG'URTALASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI</b> <i>Tog'ayniyazov Shohzodbek Ural o'g'li</i>	30
9.	<b>O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORIDA KOMPANIYALARNING MOLIYAVIY KO'RSATKICHLARI DINAMIKASI</b> <i>Iminova Nurjahon Qodirjon qizi</i>	34
10.	<b>QISHLOQ XO'JALIGIDA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH</b> <i>Djumayev Jonibek O'rinovich</i>	38
11.	<b>СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПЕРЕСТРАХОВОЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ СТРАХОВОГО СЕКТОРА</b> <i>Муминова Ансора Улдузбек кизи</i>	42
12.	<b>СОВРЕМЕННЫЕ ДРАЙВЕРЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В СТРАХОВЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ</b> <i>Жиянова Наргиза Эсанбоевна, Зохидова Диёра Улдузбек кизи</i>	45
13.	<b>O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI SUG'URTASI BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI</b> <i>Madiyev Abbas Nosirovich</i>	50
14.	<b>QISHLOQ XO'JALIGI RISKLARINING XUSUSIYATLARI VA ULARNI ILMIY TASNIFLASH METODOLOGIYASI</b> <i>Qo'ldoshev Qamariddin Mansurovich</i>	53
15.	<b>O'ZBEKISTONDA SUG'URTA TASHKILOTLARI TO'LOV QOBILIYATINI TA'MINLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI</b> <i>Xattabov Murodulla Batirovich</i>	56
16.	<b>KORXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY BOSHQARUVNING AHAMIYATI</b> <i>Muratova Saodat Igamnazar qizi</i>	59
17.	<b>TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH MASALALARI</b> <i>E.I.Ergashev, Qarayev Anvar Botirovich</i>	63
18.	<b>O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI</b> <i>Kuldashev Jahongir Qamariddinovich</i>	67
19.	<b>BANK TIZIMI BARQARORLIGI IQTISODIY RIVOJLANISH GAROVIDIR</b> <i>Nazarov Qilich Xolmuradovich, Toyirov Yunus Alamovich</i>	71
20.	<b>MILLIY IQTISODIYOTNI KREDITLASHDA TIJORAT BANKLARINING ROLI</b> <i>Nazarov Qilich Xolmuradovich, Toyirov Yunus Alamovich</i>	73
21.	<b>A SYSTEM OF INDICATORS FOR ENSURING THE ECONOMIC SECURITY OF COMMERCIAL BANKS UNDER INCREASING SYSTEMIC RISK</b> <i>Malikova Dilrabo Muminovna</i>	76

22.	<b>IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHDA HUDUDIY MARKETINGNING FUNKSIONAL O'RNI VA AHAMIYATI</b> <i>Mukhammadieva Nodira</i>	79
23.	<b>XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA INSON RESURSLARIGA QILINGAN XARAJATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI</b> <i>Usmanova Nigina Marupovna</i>	84
24.	<b>НАЛОГОВАЯ РЕФОРМА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН КАК ФАКТОР РОСТА СПРОСА НА УСЛУГИ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА СРЕДИ МАЛОГО БИЗНЕСА</b> <i>Холбеков Расул Олимович</i>	88
25.	<b>O'ZBEKISTON TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASI: IQTISODIY TA'SIRLAR, INSON KAPITALI VA REINTEGRATSIYA MUAMMOLARI</b> <i>Ismatova Shoxsanam Abdulaziz qizi</i>	92
26.	<b>O'ZBEKISTONDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING KONTSEPTUAL ASOSLARI</b> <i>Berdibayev Fayzulla Zariqbayevich</i>	95
27.	<b>ASOSIY KAPITALGA O'ZLASHTIRILGAN INVESTITSIYALAR UZOQ VAQT BARQAROR FOYDA KELISHI KAFOLATI</b> <i>Jomolov Muzaffar Mirzoxitovich</i>	98
28.	<b>SUG'URTA KAPITALIDAN INVESTITSIYA SIFATIDA FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA BAHOLASH (DEA MODELI ASOSIDA) YO'LLARI</b> <i>Kenjayev Ilhom G'iyozovich</i>	101
29.	<b>RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ORQALI INDIVIDUAL SPORTCHILARNI TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI TAHLILI</b> <i>Junaydullayev Mels Asliddin o'g'li</i>	105
30.	<b>TOSHKENT SHAHRIDA ANHOR KANALI BO'YLAB OSMA KABINALI JAMOAT TRANSPORT TIZIMINI YARATISH KONSEPSIYASI</b> <i>Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li, Kamolidinov Muhibillo Shokirjon o'g'li</i>	109
31.	<b>SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH QUVVATLARIDAN FOYDALANISHNI ME'YORLASHTIRISHNING USLUBIY JIHLARI</b> <i>Ergashev Abrorbek Raxmatulla o'g'li</i>	112
32.	<b>METROLOGIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-AMALIY JIHLARI</b> <i>Rakhmatillaev Nodirjon Yo'ldashvaevich</i>	114
33.	<b>AN INTEGRATED RISK-BASED MODEL FOR ASSESSING THE EXTERNAL ENVIRONMENT OF SMALL ENTERPRISES IN UZBEKISTAN: IMPLICATIONS FOR THE INSURANCE MARKET</b> <i>Djumabayeva Dilobar Asatillayevna</i>	116
34.	<b>UY-JOY NARXLARINI HISOBLASHDA HEDONIK REGRESSIYA FORMULASIDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI</b> <i>Tog'ayeva Dildora Akramovna</i>	120
35.	<b>СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ КЛАССИЧЕСКИХ И СОВРЕМЕННЫХ ПРИНЦИПОВ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ</b> <i>Ахоров Зариф Орипович</i>	123
36.	<b>RAQAMLI SOLIQ TIZIMLARINI JORIY ETISH VA ULARNING IQTISODIY TA'SIRI</b> <i>Tuychiyev Sherxon Shuxrat o'g'li, Xubbimov Sherzod Jamshidovich</i>	126
37.	<b>SOLIQQA TORTISHNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRI: EMPIRIK TAHLILLAR ASOSIDA</b> <i>Toshnazarova Lola Shuxratillayevna, Karimov Mardon Akram o'g'li</i>	129
38.	<b>TURIZMDA INNOVATSIYALARNING HAYOTIYLIK SIKLI VA ULARNING BOZORGA CHIQUISH BOSQICHLARI</b> <i>Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi</i>	133
39.	<b>RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ JOYLARIDA TURIZM XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH</b> <i>Xalimov Shaxboz Xalimovich</i>	136

## “O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC institute “Milliy ta‘lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamiyev Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



## O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORIDA KOMPANIYALARNING MOLIYAVIY KO'RSATKICHLARI DINAMIKASI

Iminova Nurjahan Qodirjon qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi  
Email: nyrjahan80@gmail.com

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorida kompaniyalarning moliyaviy ko'rsatkichlari dinamikasining 5 yillik rivojlanish dinamikasi (o'sishi va kamayishi) taxlili tadqiq etiladi. Tadqiqotning dolzarbligi milliy sug'urta bozorida sug'urta mukofotlari, depozitlar (omonatlar), qimmatli qog'ozlar, qarzlari (yoki zayomlar), ko'chmas mulk, korxonalar ustav fondidagi ishtiroki (ulushi), boshqa aktivlar hajmi va kompaniyalarning kapitallashuv darajasi kabi asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar ko'rib chiqiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi, bozordagi tarkibiy o'zgarishlar, yetakchi kompaniyalar ulushi va sohani raqamlashtirishning moliyaviy barqarorlikka ta'sirini yoritib berishdan iborat.

**Kalit so'zlar:** Sug'urta bozori, moliyaviy dinamika, investitsiya aktivlari, kapitallashuv, depozitlar, ko'chmas mulk, moliyaviy barqarorlik, raqamlashtirish.

**Abstract:** This article investigates the analysis of the 5-year development dynamics (growth and decline) of financial indicators of companies in the insurance market of the Republic of Uzbekistan. The relevance of the study lies in the examination of key financial indicators of the national insurance market, such as insurance premiums, deposits, securities, loans, real estate, participation in the authorized capital of enterprises, the volume of other assets, and the level of capitalization of companies. The main objective of the research is to highlight structural changes in the market, the share of leading companies, and the impact of the industry's digitalization on financial stability.

**Keywords:** Insurance market, financial dynamics, investment assets, capitalization, deposits, real estate, financial stability, digitalization.

**Абстрактный:** В данной статье исследуется анализ 5-летней динамики развития (роста и снижения) финансовых показателей компаний на страховом рынке Республики Узбекистан. Актуальность исследования заключается в рассмотрении таких ключевых финансовых показателей национального страхового рынка, как страховые премии, депозиты (вклады), ценные бумаги, займы, недвижимость, участие в уставном фонде предприятий, объем прочих активов и уровень капитализации компаний. Основная цель исследования — осветить структурные изменения на рынке, долю ведущих компаний и влияние цифровизации отрасли на финансовую устойчивость.

**Ключевые слова:** Страховой рынок, финансовая динамика, инвестиционные активы, капитализация, депозиты, недвижимость, финансовая устойчивость, цифровизация.

### Kirish (Введение/Introduction).

O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va erkinlashtirish sharoitida moliya bozorining muhim bo'g'ini hisoblangan sug'urta sohasi so'nggi yillarda sifat va miqdor jihatidan tub burilish bosqichini bosib o'tmoqda. Milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashda sug'urta kompaniyalari nafaqat xatarlarni boshqaruvchi tuzilma, balki yirik institutsional investor sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Shu bois, sug'urtalovchilarning moliyaviy ko'rsatkichlari dinamikasini tadqiq etish, ularning investitsiya portfeli tarkibini tahlil qilish va moliyaviy barqarorligini baholash bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. So'nggi besh yil ichida (2021–2025-yillar) O'zbekiston sug'urta bozori jadal kapitallashuv jarayonini boshdan kechirdi. Yangi tahrirdagi "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi hamda sug'urta kompaniyalarining ustav kapitaliga qo'yilgan talablarning bosqichma-bosqich oshirilishi bozorda sog'lom raqobat muhitini shakllantirishga xizmat qildi. Ushbu davr mobaynida kompaniyalarning jami aktivlari tarkibida depozitlar, ko'chmas mulk va qimmatli qog'ozlar kabi moliyaviy vositalarning o'zni sezilarli darajada o'zgaradi. [4]

Mazkur tadqiqotning maqsadi — 2021–2025-yillar oralig'ida O'zbekiston sug'urta bozorida moliyaviy ko'rsatkichlar o'zgarishini statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilish, investitsiya faoliyatidagi asosiy tendensiyalarni aniqlash hamda sohani raqamlashtirishning moliyaviy barqarorlikka ta'sirini yoritib berishdan iborat. Shuningdek, maqolada sug'urtalovchilarning o'z majburiyatlarini bajarish qobiliyatini belgilovchi likvidlik va rentabellik mezonlari nazariy va amaliy jihatdan ko'rib chiqiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).**

Sug'urta bozorining moliyaviy barqarorligi va kompaniyalarning investitsiya faoliyati dinamikasi ko'plab iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ushbu mavzudagi izlanishlarni shartli ravishda uchta yo'nalishga ajratib o'rganish mumkin.

-Nazariy asoslar va moliyaviy barqarorlik kontseptsiyalari:

Sug'urta nazariyasining klassik vakillari, jumladan, A.Vagner va A.Manes sug'urta kompaniyalarining moliyaviy quvvati ularning texnik zaxiralari va o'z sarmoyalarining mutanosibligiga bog'liqligini ta'kidlashgan. Zamonaviy iqtisodiyotda E.Shtraub sug'urta risklarini matematik modellashtirish orqali moliyaviy barqarorlikni baholash uslubiyotini rivojlantirgan.[1]

-MDH va xorijiy mamlakatlar tajribasi:

Rossiyalik iqtisodchi olimlar V.V.Shaxov va L.I.Reytmann sug'urta kompaniyalarining investitsiya portfelini shakllantirishda "oltin qoida" — likvidlik, qaytimlilik va xavfsizlik tamoyillariga alohida e'tibor qaratishgan. Ularning fikricha, sug'urta bozorining rivojlanishi bevosita mamlakatdagi makroiqtisodiy barqarorlik va inflatsiya darajasiga bog'liq. [2]

-Milliy iqtisodchi olimlarning tadqiqotlari:

O'zbekistonda sug'urta bozorini shakllanishi va uning moliyaviy ko'rsatkichlari dinamikasi bo'yicha H.M.Shenayev, S.S.Gulyamov, H.S.Muhtidinov va X.R.Abdurahmonov kabi olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan. T.K. Iminov, o'z ishlarida sug'urta kompaniyalarining investitsiya faoliyatini diversifikatsiya qilish va uzoq muddatli aktivlarga mablag' yo'naltirishning muhimligini asoslab bergan. X.R.Abdurahmonov sug'urta bozorida raqobatbardoshlikni oshirish uchun kompaniyalarning kapitallashuv darajasini yuksaltirish birlamchi vazifa ekanligini ta'kidlagan.[3]

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, aksariyat tadqiqotlar sug'urta bozorining umumiy rivojlanishiga qaratilgan bo'lsa-da, so'nggi yillardagi

keskin tarkibiy o'zgarishlar, xususan, ko'chmas mulk aktivlarining keskin o'sishi va raqamli transformatsiyaning moliyaviy ko'rsatkichlarga ta'siri hali yetarlicha kompleks o'rganilmagan. Bu esa mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilab beradi.

**Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/Методы).** Tadqiqot jarayonida O'zbekiston sug'urta bozorining 2021–2025-yillardagi holatini o'rganish uchun tizimli yondashuv, qiyosiy va statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlashda quyidagi usullardan qo'llanildi:

Dinamik qatorlar tahlili: Sug'urta aktivlarining 5 yillik o'sish sur'atlarini aniqlash uchun;

Tarkibiy guruhlash: Investitsiya portfelini aktiv turlari (depozitlar, ko'chmas mulk, qimmatli qog'ozlar) bo'yicha taqsimlash va ularning ulushini baholash uchun;

Iqtisodiy-statistik tahlil: To'plangan raqamli ma'lumotlar asosida bozordagi asosiy trendlarni (masalan, ko'chmas mulk aktivlarining keskin o'sishi) asoslash uchun.

**Tahlil va natijalarlar (Analysis and results/Анализ и результаты).**

So'nggi yillarda O'zbekiston sug'urta bozorida sug'urta mukofotlari hajmining jadal o'sishi va mahsulotlar tuzilmasining kengayishi kuzatilmoqda. Sug'urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligi — bu nafaqat joriy to'lov qobiliyati, balki kutilmagan yirik zararlar yoki iqtisodiy inqirozlar sharoitida ham o'z majburiyatlarini to'liq bajara olish salohiyatidir. Biz yaxshi bilamizki, moliyaviy barqarorlik quyidagi asosiy ustunlarga tayanadi:


Yetarli kapitallashuv, kompaniyaning o'z mablag'lari va ustav kapitali qabul qilingan tavakkalchiliklarga mutanosib bo'lishi;

Zaxiralar shakllanishi, sug'urta mukofotlarining bir qismini kelajakdagi to'lovlar uchun aniq maqsadli fondlarga, ya'ni texnik zaxiralarga yo'naltirish;

Investitsiya siyosati, aktivlarni joylashtirishda diversifikatsiya, likvidlik va qaytimlilik tamoyillariga amal qilish. [10]

Ushbu nazariy yondashuv maqolada keltirilgan 2021–2025-yillardagi statistik tahlillari uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. Sug'urta bozorida ko'plab sug'urta mahsulotlari taklif etiladi, ular orasida hayot sug'urtasi, mol-mulk sug'urtasi, avtomashina bilan bog'liq sug'urta turlari, javobgarlik sug'urta turlari, insonning sog'lig'i va uning baxtsiz hodisalarga uchrashidan sug'urta turlari kabilarni keltirish mumkin. Shu bilan, sug'urta shaxslar va tashkilotlar uchun moliyaviy xavfsizlik kafolatini va barqarorligini ta'minlaydi. Eng asosiy, sug'urta kompaniyalari moliyaviy resurslarni jamlash va ularni turli iqtisodiy sektorlarga investitsiya qilishi shuningdek, ijtimoiy sohalarga yordam berish orqali ham iqtisodiy tizimda muhim rol o'ynaydi. Bu sarmoyalar mamlakatning infrastrukturasi rivojlanishiga va iqtisodiy barqarorligiga yordam beradi.

Ish o'rinlari yaratish. Sug'urta sohasi ko'plab ish o'rinlari yaratish orqali mamlakat iqtisodiyotga hissa qo'shadi. Masalan, sug'urta yo'nalishidagi sug'urta agentlari, anderrayerlar, adjasterlar, da'volarni bartaraf etish bo'limi xodimlari va shu kabi boshqa kasblarga bo'lgan talabni shakllantiradi. Iqtisodiy o'sish va global miqyosdagi integratsiya. Sug'urta bozorlarining globallashuvi mamlakatlar o'rtasida savdo va sarmoyaviy aloqalarni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Sug'urta xizmatlarining xalqaro miqyosda taqdim etilishi mamlakatlarning iqtisodiy hamkorliklarini kuchaytiradi va o'zaro ishonchni mustahkamlaydi.



1-rasm. Sug'urta bozorida 2021-2025 yillarda depozitlar dinamikasi<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi. (NAPP hisobotlari asosida)

1-jadval. O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorining tarkibiy tuzilishi dinamikasi (2021-2025yillar)<sup>2</sup>

	2021	2022	2023	2024	2025
Depozitlar (omonatlar)	2 208 573,00	2 896 635,66	4 037 368,71	4 583 761,83	6 036 684,75
Qimmatli qog'ozlar	1 095 976,00	1 287 916,87	1 357 492,06	1 303 756,26	1 393 096,95
Qarzlalar (yoki zayomlar)	47 453,00	60 775,92	46 863,89	95 400,48	45 656,01
Ko'chmas mulk	247 340,00	358 944,13	539 497,56	452 745,32	1 657 655,55
Korxonalarining ustav fondidagi ishtiroki (ulushi)	147 323,00	118 221,18	134 728,20	98 480,18	85 502,62
Boshqalar (yoki boshqa aktivlar)	7 323,00	29 251,65	33 987,87	8 424,68	331 432,50
<b>Jami:</b>	<b>3 753 988,00</b>	<b>4 751 745,40</b>	<b>6 149 938,29</b>	<b>6 542 568,75</b>	<b>9 550 028,39</b>

Manba: National Agency of Perspective Projects hisobotlari

Jadvaldagi ko'rsatkichlariga asosan quyidagicha xulosa qilishimiz mumkin. O'zbekiston sug'urta bozorida bank depozitlari sug'urta kompaniyalarining investitsiya portfelidagi eng asosiy va salmoqli aktiv turi hisoblanadi. Sug'urta kompaniyalari o'z aktivlarining katta qismini aynan bank omonatlarida saqlashadi.

Bu yerda, ulush ko'rsatkichi: 2024-2025 yillar holatiga ko'ra, sug'urta kompaniyalari jami investitsiyalarining 63% dan 70% gacha bo'lgan qismi bank depozitlariga to'g'ri kelmoqda. O'sish dinamikasi: 2021-yilda depozitlar hajmi 2,2 trln so'm bo'lgan bo'lsa, 2025-yilga kelib bu ko'rsatkich 6 trln so'mdan oshgan. Bu sohaning barqaror va likvidli aktivlarga bo'lgan ehtiyoji oshayotganini ko'rsatmoqda



2-rasm. Sug'urta bozorida 2021-2025 yillarda depozitlar dinamikasi<sup>3</sup>  
Manba: National Agency of Perspective Projects hisobotlari

Qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 2021-yildagi 1,09 trln so'mdan 2025-yilga kelib 1,39 trln so'mga yetgan. O'sish sur'ati, 5 yil davomida jami o'sish taxminan 27% ni tashkil etgan. Pasayish davri, e'tiborli jihati, 2024-yilda ushbu ko'rsatkich biroz pasaygan (1,35 trln dan 1,30 trln so'mga), biroq 2025-yilda yana tiklanish kuzatilgan. Jadvaldagi "Jami" aktivlar bilan solishtirganda, qimmatli qog'ozlarning o'rni pasayib borayotganini ko'rishimiz mumkin, 2021-yilda, qimmatli qog'ozlar jami aktivlarning taxminan 29% ini tashkil qilgan. 2025-yilda: Jami aktivlar keskin o'sgani holda (9,5 trln so'm), qimmatli qog'ozlarning ulushi taxminan 14,5% ga tushib qolgan. Sug'urta kompaniyalari qimmatli qog'ozlarga (asosan davlat obligatsiyalar) va barqaror aksiyalar) ishonchli aktiv sifatida qarashadi, lekin ularning o'sish sur'ati depozitlar yoki ko'chmas mulkchalik tez emas.

Sug'urtalovchilar o'z mablag'larini fond bozoriga tikishdan ko'ra, bank depozitlari (likvidlik uchun) va ko'chmas mulkda (kapitalni saqlash uchun) saqlashni afzal ko'rmoqda. Fond bozorida qimmatli qog'ozlar ulushining sekin o'sishi O'zbekiston fond bozoridagi jozibador vositalarning (ayniqsa, uzoq muddatli korporativ obligatsiyalarning) hali yetarli darajada emasligi bilan izohlanishi mumkin. Qimmatli qog'ozlar

<sup>2</sup> Muallif ishlanmasi (NAPP hisobotlari asosida)

<sup>3</sup> Muallif ishlanmasi. (NAPP hisobotlari asosida)

sug'urta kompaniyalari uchun ikkinchi darajali muhim aktiv bo'lib qolmoqda. Ular asosan, davlat tomonidan belgilangan di versifikatsiya normativlarini bajarish, barqaror, ammo o'rtacha daromad olish uchun xizmat qilmoqda. Sug'urta kompaniyalari qimmatli qog'ozlar bozorida faol "o'yinchi" bo'lishdan ko'ra, ko'proq "ehtiyotkor investor" pozitsiyasini egallashgan.

Ko'chmas mulk, 2025-yilda keskin o'sish kuzatilgan (452 mlrd dan 1,6 trln so'mga). Bu investitsiyalarni diversifikatsiya qilish va uzoq muddatli aktivlarga bo'lgan qiziqish ortganidan dalolat beradi. Bu aktivlarning jismoniy qiymati oshishi kompaniya balansini mustahkamlaydi.

Korxonalarining ustav fondidagi ishtiroki (Ulushlar), bu ko'rsatkichda pasayish tendensiyasi kuzatilmoqda. 2021-yildagi 147 mlrd so'mdan 2025-yilda 85 mlrd so'mga tushgan. Sug'urta kompaniyalari boshqa korxonalarining ta'sischi bo'lishdan ko'ra, ko'proq likvidli (tez pullanadigan) aktivlarga e'tibor qaratmoqda. Bu xavfli yoki uzoq muddatda foyda keltirmaydigan biznes ulushlaridan voz kechilayotganini ko'rsatadi.

Qarzarlar va boshqa aktivlar, 45–95 mlrd so'm oralig'ida o'zgaruvchan bo'lib, barqaror o'sishga ega emas. Bu kompaniyalarning qarz berish faoliyatiga asosiy daromad manbai sifatida qaramasligini bildiradi. Boshqa aktivlar, 2025-yilda keskin o'sish (331 mlrd so'm) kuzatilgan, bu yangi moliyaviy instrumentlar yoki kutilmagan debitorlik qarzdorliklari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Umumiy aktivlar (Jami): 2021-yildagi 3,7 trln so'mdan 2025-yilda 9,5 trln so'mga yetgan, ya'ni soha kapitalizatsiyasi 2,5 baravardan ortiqroqqa o'sgan. [11]

O'zbekiston sug'urta bozorining dinamik holatini inobatga olib, ijobiy ta'sirlarni maksimal darajada oshirish va ortiqcha xarajatlarni minimallashtirishga yo'naltirilgan quyidagi amaliy tavsiyalarni ajratish mumkin:

Masshtabning kengayishi, jami aktivlar 5 yil ichida 3,7 trln so'mdan 9,5 trln so'mga yetgan (2,5 baravar o'sish). Bu sug'urta bozorining hajmi va kompaniyalarning moliyaviy imkoniyatlari tez sur'atlarda o'sayotganidan dalolat beradi.

Likvidlikka e'tibor (Bankka bog'liqlik). Bozorning asosiy ustuni hamon bank depozitlari bo'lib qolmoqda (jami aktivlarning 63% dan ortig'i). Bu kompaniyalarning xavfni kamaytirishga intilayotganini, ammo investitsiya faoliyatida hali ham bank tizimiga yuqori darajada bog'liqligini ko'rsatadi. Portfelning diversifikatsiyasi, ko'chmas mulk ulushining ortishi va qimmatli qog'ozlarning barqarorligi portfelning bir tomonlama (faqat depozit) bo'lib qolishidan qochishga urinishdir. Moliyaviy barqarorlik, aktivlarning bunday o'sishi sug'urta kompaniyalarining yirik sug'urta hodisalari (masalan, tabiiy ofatlar yoki yirik sanoat avariylari) bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish qobiliyati oshganini anglatadi.

#### Xulosa va takliflar (Conclusion/Выводы и предложения).

O'zbekiston sug'urta bozori jadal rivojlanish bosqichida. Bozor kundan-kunga "og'irlashib", katta kapitalga ega bo'lmoqda. Kelajakda sug'urta kompaniyalarining fond bozorida (aksiya va obligatsiyalar) yanada faolroq ishtirok etishi, soha rentabelligini yanada oshirishi kutiladi. Lekin muammoli jihatlar shundaki, qimmatli qog'ozlar va ustav fondidagi ishtirok ulushining nisbatan pasayishi sug'urta kompaniyalarining fond bozorida faolligini oshirish uchun qo'shimcha rag'batlar zarurligini ko'rsatmoqda. Ushbu xulosalardan kelib chiqib, sug'urta kompaniyalarining investitsiya jozibadorligini oshirish uchun uzoq muddatli davlat obligatsiyalari va korporativ qimmatli qog'ozlar bozorini yanada rivojlantirish tavsiya etiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. Emmett J. Vaughan, Therese M. Vaughan. «Fundamentals of Risk and Insurance» (Risk menejmenti va sug'urta asoslari).
2. Shaxov V. V. «Straxovaniye: Uchebnik dlya vuzov».
3. Abdurahmonov I. va boshqalar. «Sug'urta ishi» (Darslik).
4. O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi 730-son Qonuni, 2021 yil 23 noyabr. <https://lex.uz/en/docs/5739117>
5. O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi 370-son Qonuni, 2014 yil 6 may. <https://lex.uz/docs/-2382409>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2025 yil 1 martdagi PQ-108-son Qarori. <https://lex.uz/docs/-6824178>
7. Kumar et al. «Enterprise risk management in the insurance industry: Trends and future directions». 2022. [https://www.researchgate.net/publication/379235864\\_Enterprise\\_risk\\_management](https://www.researchgate.net/publication/379235864_Enterprise_risk_management).
8. Abdusaidov S. — «Reasons and Problems of Application of IFRS 17 in Insurance Companies». Journal of multidisciplinary sciences and innovations. German international journals company, 2, 2025. Pages 129-130.
9. <https://napp.uz/ru/category/ochiq-ma-lumotlar>.
10. ANALIZ FINANSOVOGO SOSTOYANIYA STRAHOVOY KOMPANII. Tekst nauchnoy stat'i po spetsial'nosti «Ekonomika i biznes» Gurnak O.V.
11. Qo'ldoshev Qamariddin Mansurovich. (2025). Sug'urta xizmatlariga bo'lgan iste'mol talabini oshirishning innovatsion yo'llari. Insurance market of Uzbekistan, 2(6), 4–8. [https://doi.org/10.55439/INS/vol2\\_iss6/336](https://doi.org/10.55439/INS/vol2_iss6/336)